

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

NASIROV IZZATILLA SUNNAT O‘G‘LI

**JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAN OZOD ETILGAN
AYOLLAR RETSIDIV JINOYATCHILIGINING OLDINI OLIISHNI
TAKOMILLASHTIRISH**

**12.00.08. – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi.
12.00.15 – Kriminologiya (yuridik fanlar)**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of the abstract of the dissertation of the doctor of philosophy (PhD)

Nasirov Izzatilla Sunnat o‘g‘li

Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan ayollar retsidiv jinoyatchiligining oldini olishni takomillashtirish..... 3

Насиров Иззатилла Суннат угли

Совершенствование предотвращать рецидивных преступности среди женщин, освобожденных из исправительных учреждений..... 23

Nasirov Izzatilla Sunnat Ogli

Improving the prevention of recidivism of women released from penal institution..... 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 49

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

NASIROV IZZATILLA SUNNAT O‘G‘LI

**JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAN OZOD ETILGAN
AYOLLAR RETSIDIV JINOYATCHILIGINING OLDINI OLISHNI
TAKOMILLASHTIRISH**

**12.00.08. – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi.
12.00.15 – Kriminologiya (yuridik fanlar)**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Yu958 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<https://akadmvd.uz>) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xatamov Rustam Abdug‘aniyevich
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Niyozova Salomat Saparovna
yuridik fanlar doktori, professor

Qalandarov Maqsud Maxmudovich
yuridik fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 14-mart kuni soat 14:30 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68. Tel./faks: (+99871) 265-22-52; e-mail: info@akadmvd.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1434-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68. Tel.: (+99871) 265-22-52.).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 1-mart kuni tarqatildi.

(2025-yil 1-martdagi 2-raqamli reestr bayonnomasi).

A.S. Tursunov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
yuridik fanlar doktori, professor

A.D. Xusanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Sh.A. Kulmatov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o'tayotgan shaxslarning 7 foizini ayollar tashkil etmoqda¹. Xususan, Amerika Qo'shma Shtatlarida – 211375 nafar (33,5 % retsdiv jinoyat sodir etgan ayollar), Xitoy Xalq Respublikasida – 145000 (31 %), Braziliyada – 42694 (30,5 %), Rossiya Federatsiyasida – 39120 (29,8 %), Tailand – 32952 (29 %)², Qozog'istonda 2457 nafar (28,3 %), Turkmanistonda 2000 nafar (27,5 %), O'zbekistonda 1699 nafar (28,7 %) mahkuma ayollar jazo o'tamoqda³. Shuningdek, ushbu ko'rsatkich aholining 100 ming ayollariga nisbatan eng ko'p jazo o'tayotgan ayollar soni AQSh (64 nafar), Tailand (47), Turkmaniston (38), Qozog'istonda (23)⁴, O'zbekistonda (9) nafarga to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkichlar ayollar retsdiv jinoyatchiligining oldini olishni, ular tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning sabablarini aniqlash, ayollarning tabiati, jamiyatdagi o'rni, oilaviy ahvoli, turmush tarzi, jismoniy va ruhiy holati, kasb-hunari va boshqa ijtimoiy demografik ma'lumotlaridan kelib chiqib, ularni jamiyatga moslashtirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish borasidagi yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Jahonda retsdiv jinoyat sodir etgan ayollarning xulq-atvorini ta'sirchan nazorat qilish, ularning axloqini tuzatish va qayta tarbiyalash, jazoni ijro etish muassasalarida jazo o'tash shartlarini differensiyalashtirish prinsipiga asosan amalga oshirish, oiladagi ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash, ayollar retsdiv jinoyatchiligining sabablari va unga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, uning oldini olish samaradorligini oshirish bilan bog'liq muammolarning ilmiy asoslangan yechimlarini topishga, shuningdek ularni jamiyatga ijtimoiy moslashtirishga qaratilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda qonun ustuvorligi va konstitutsiyaviy qonuniylikni ta'minlash hamda inson qadrini ushbu jarayonning bosh mezoni sifatida belgilash⁵ orqali jazoni o'tab bo'lgan fuqarolarning kelgusida jamiyatda o'z o'rnini topishiga amaliy ko'maklashish tartiblarini joriy qilish siyosati izchil amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Aholining ijtimoiy ehtiyojmand ayrim toifalarini qo'llab-quvvatlash va ularning bandligiga ko'maklashish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"⁶gi (2023) qarori bilan jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslarni ishga qabul qilgan ish

¹ Совет по правам человека: женщин в тюрьмах становится все больше <https://news.un.org/ru/story/2024/07/1382111> (Murojaat vaqti: 15.01.2025-yil).

² С 2000 года количество женщин в тюрьмах увеличилось на 60% <https://aussiedlerbote.de/2024/10/kolichestvo-zhenshhin-v-tyurmax//> (Murojaat vaqti: 15.01.2025-yil).

³ https://www.prisonstudies.org/sites/default/files/resources/downloads/world_female_imprisonment_list_5th_edition.pdf (Murojaat vaqti: 15.01.2025-yil).

⁴С 2000 года количество женщин в тюрьмах увеличилось на 60% <https://aussiedlerbote.de/2024/12/kolichestvo-zhenshhin-v-tyurmax//> (Murojaat vaqti: 15.01.2025-yil).

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"⁶gi PF-60-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/5841063> (Murojaat vaqti: 15.01.2025-yil).

⁶ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 5-sentyabrdagi "Aholining ijtimoiy ehtiyojmand ayrim toifalarini qo'llab-quvvatlash va ularning bandligiga ko'maklashish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"⁶gi 450-son qarori <https://lex.uz/docs/6595344> (Murojaat vaqti: 15.01.2025-yil).

beruvchilarga har bir shaxs uchun uch oydan ortiq muddatda mehnat faoliyatini davom ettirgandan so'ng bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida bir martalik subsidiya ajratilayotganligi yuqoridagi fikrlarni to'la asoslaydi. Biroq, O'zbekistonda ayollar tomonidan 2019-2024-yillarda sodir etilgan jinoyatlarni tahlil qilganimizda quyidagilar aniqlandi: 2019-yilda jami 5032 nafar ayollar tomonidan jinoyatlar sodir etilgan bo'lib, ulardan 435 nafari ozodlikdan mahrum etilgan, ularning 6,6 foizi ayollar retsidiv jinoyatiga to'g'ri kelgan, 2020-yilda jami 5774 nafar ayol, 427 nafari ozodlikdan mahrum etilgan, ularning 6,8 foizi ayollar retsidiv jinoyati, 2021-yilda jami 9759 nafar ayol, 806 ozodlikdan mahrum etilgan, ularning 8,7 foizi ayollar retsidiv jinoyati, 2022-yilda jami 11460 nafar ayol, 1241 ozodlikdan mahrum etilgan, ularning 10,2 foizi ayollar retsidiv jinoyati, 2023-yilda jami 10891 nafar ayol, 1290 ozodlikdan mahrum etilgan, ularning 9 foizi ayollar retsidiv jinoyati, 2024-yilda 7132 nafar ayol, 1182 ozodlikdan mahrum etilgan, ularning 8,8 foizi ayollar retsidiv jinoyatini tashkil etgan⁷. 2019-2024-yillarda ayollar retsidiv jinoyatchiligi 2,4 foizga oshgan. Ozodlikdan mahrum qilish jazosini qo'llash esa 3 barobarga ko'paygan. Jinoyatchilikdagi ayollarning umumiy ulushi 2019-yil 11,8 foiz, 2024-yil 12,2 foizni tashkil qilganligi ozod etilgan ayollarning ijtimoiy moslashuvi va jamiyatga reintegratsiyasiga ko'maklashish institutini takomillashtirish zarurati mahkuma ayollarni jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilish, ularning retsidiv jinoyatchiligining oldini olishni nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etishning dolzarbligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi (2023) Konstitutsiyasi, "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi (2014) qonuni, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi (2019) qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6012-son (2020) farmoni, "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5020-son (2021) qarori, "Ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab bo'lgan fuqarolarning ijtimoiy moslashuviga ko'maklashish bo'yicha «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»ni berish tartibi to'g'risida"gi PQ-299-son (2022) qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarni ijtimoiy-maishiy ta'minlash va ishga joylashtirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi 543-son (2018) qarori⁸ hamda sohaga doir boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi // <https://stat.uz/uz/> (Murojaat vaqti: 15.01.2025-yil).

⁸ Bu va boshqa manbalar dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ayollar retsdiv jinoyatchiligining oldini olishga oid huquqiy normalarni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishning ayrim jihatlari Q.R. Abdurasulova, G.U. Axmedova A.G. Zakirova, Z.S. Zaripov, I. Ismailov, G‘.S. Qarshiyev, A.A. Otajonov, Yu.S. Pulatov, A.Sh. Murodov, M.X. Rustambayev, N.S. Salayev, D.A. Tadjibayeva, R.A. Xatamov, D.M. Usmonov, M.Q.O‘razaliyev, B.A. Umirzakov, M.Sh. Yuldashevlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

Yu.M. Antonyan, Ye.A. Antonyan, A.E. Bagdasarova, T.V. Volkova, M.N. Gernet, V.A. Ivanov, M.V. Karpushina, D.R. Kazakova, D.D. Koxova, V.P. Kutina, J.A. Kettle, Ch. Lombrozo, S.G. Musayev, Ya.R. Muradova, L.I. Razbirina, O.A. Shuranova kabi xorijlik olimlar tomonidan ayollar retsdiv jinoyatchiligining ayrim xususiyatlari o‘rganilgan⁹.

Shuningdek boshqa bir qator olimlar ayollar retsdiv jinoyatchiligining oldini olish, profilaktik chora-tadbirlarni joriy qilish va jazoni ijro etish muassasalarida ayol mahkumalarning jazo o‘tashining o‘ziga xos xususiyatlariga o‘z e‘tiborlarini qaratishgan.

Biroq, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan ayollar retsdiv jinoyatchiligining oldini olish, ayollar retsdiv jinoyat sodir etish sabablari va shart-sharoitlarini, amalga oshirilgan islohotlarning natijalarini, amaldagi qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotini, xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalari asosida jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan ayollar retsdiv jinoyatchiligining oldini olishdagi muammolarni tadqiq etish zarurati mavjudligi bilan isbotlanadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti mavzusi O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Jinoyat va jinoyat-ijroiya qonunchiligini takomillashtirishning dolzarb masalalari” (13-bandi) (2022-2025-yy.) mavzusidagi ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ayollar retsdiv jinoyatchiligining muammolarini o‘rganish, tahlil qilish, ayollar retsdiv jinoyatchiligining oldini olishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ayollar retsdiv jinoyatchiligining oldini olishni retrospektiv tahlil qilish;

ayollar retsdiv jinoyatchiligining sabab va shartlarini o‘rganish;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan va jazo o‘tayotgan retsdivist ayollarning kriminologik jihatlarni ochib berish;

jazoni ijro etish muassasalarida jazo o‘tayotgan va jazoni o‘tagan ayollarning ijtimoiy moslashuvdagi muammolarini aniqlash;

ayollar retsdiv jinoyatchiligining oldini olish faoliyatiga oid ayrim xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribasini o‘rganish hamda milliy qonunchilikka implementatsiya qilish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

⁹ Bu va boshqa manbalar dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan ayollar retsidiv jinoyatchiligining oldini olish chora-tadbirlarini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektini jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan ayollar retsidiv jinoyatchiligining oldini olish bilan bogʻliq ijtimoiy-huquqiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini ayollar retsidiv jinoyatchiligining oldini olishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, ularni qoʻllash amaliyoti, ayrim xorijiy mamlakatlar qonunchiligi hamda yuridik fanda mavjud yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari tadqiqot olib borishda analiz, sintez, induksiya, deduksiya, tarixiylik, mantiqiylik, qiyosiy-huquqiy, tizimli tahlil, shuningdek, sotsiologik soʻrovlar oʻtkazish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayollarni ishga qabul qilgan ish beruvchilarga mazkur amaliyotdagi norasmiy toʻsiqlarni bartaraf etish maqsadida Bandlikka koʻmaklashish davlat jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan subsidiya berish tartibini joriy etish zarurati asoslantirilgan;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayollarni “ishga marhamat” monomarkazlari va kasb-hunarga oʻqitish markazlarida davlat hisobidan mehnat bozorida talab yuqori boʻlgan kasb-hunarga tayyorlash hamda tadbirkorlik koʻnikmalarini shakllantirish amaliyotini yoʻlga qoʻyish lozimligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayollarni tegishli tashkilotlardagi mavjud boʻsh (vakant) hamda zaxiraga qoʻyiladigan ish oʻrinlariga ishga joylashtirish tizimini yoʻlga qoʻyish ularning ijtimoiy rehabilitatsiyasi va jamiyatga moslashtirishning samarali natijasiga erishish mumkinligi isbotlangan;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayollarning bandlik holatini “Bandlik xizmati” va “Ijtimoiy moslashtirish markazlari” axborot tizimiga integratsiya qilish orqali doimiy monitoring qilib borish tizimini joriy etish zarurligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

jazoni ijro etish muassasalarida ayollar sodir etgan retsidiv jinoyatchiligiga koʻra kriminologik jihatdan toifalarga ajratib, «jinoyat sodir etishga moyil retsidivist ayollar», «tajovuzkor retsidivist ayollar», «oʻz kasbi orqali jinoyat sodir etuvchi retsidivist ayollar», «giyohvand va psixotrop moddalarni sotuvchi retsidivist ayollar», «tushkun holatidagi (passiv-disgarmoniyali) retsidivist ayollar» tushunchalariga mualliflik taʼrif berilib, ularning mazmuni, mohiyati va belgilari ilmiy-nazariy asoslangan;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan ijtimoiy moslashtirishga muhtoj ayollarga xotin-qizlar faoli tomonidan psixolog, huquqshunos, pedagog, rasmiy diniy soha vakillarining yordamini tashkil etish hamda moddiy tarafdin qiynalgan ayollarni qoʻllab-quvvatlash uchun xayriya fondini tuzish zarurati asoslantirilgan;

xorijiy davlatlarning ilgʻor tajribalarini oʻrgangan holda sobiq mahkum va mahkumalar tashabbusi bilan tashkil etiladigan ish bilan taʼminlaydigan hamda

ijtimoiy yordam beradigan “Yangi imkoniyat” tashkilotini tuzish, xayriya fondi orqali moddiy tomondan ta’minlash ijobiy natija berishi mumkinligi isbotlangan;

21-son jazoni ijro etish koloniyasini birinchi marotaba og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat sodir etib ozodlikdan mahrum etilgan ayollar va voyaga yetmagan ayollar uchun jazoni o‘tash joyi etib belgilash, sud tomonidan qattiq tartibli koloniyada jazo o‘tashi belgilangan va o‘ta xavfli retsidivist deb topilgan mahkuma ayollarni alohida koloniyaga o‘tkazish mexanizmlari shakllantirilgan;

Jinoyat-ijroiya qonunchiligida nazarda tutilgan mahkumlarning tuzalish yo‘liga o‘tganligini aniqlash bo‘yicha mezonlarning barchasiga to‘liq mos kelgan mahkumalarni ijobiy deb topish ko‘rsatib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotni o‘tkazishda ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan keng foydalanilgan. Tadqiqot natijalari qonunchilik normalari, ilg‘or xorijiy tajribalar, huquqni qo‘llash amaliyoti, huquqbuzarliklar profilaktikasi nazariyasida umume’tirof etilgan qoidalar va boshqa ishonchli manbalar, yetarli ilmiy dalillar asosida isbotlangan. Ayollar retsidiv jinoyatchiligining oldini olishni takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan samarali o‘tkazilib, yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e‘lon qilingan. Olingan ilmiy natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy etilgan.

Ayollar retsidiv jinoyatchiligining oldini olish masalalari bo‘yicha 258 nafar tartibotni tashkil etish (rejim), tezkor-qidiruv, tarbiyaviy ishlarni tashkil etish, maxsus-hisob bo‘limi xodimlari hamda birinchi mintaqaviy muvofiqlashtirish markazi 21-son jazoni ijro etish koloniyasi (mahkuma ayollar uchun mo‘ljallangan)da jazo muddatini o‘tayotgan 300 nafarga yaqin ayollardan fikrlarini o‘rganish uchun sotsiologik so‘rov o‘tkazilgan, 104 nafar o‘ta xavfli retsidivist ayollarga oid jinoyat ishlari (shaxsiy hujjatlar yig‘ma jildi) o‘rganilgan, 2019–2024-yillardagi statistik ma’lumotlar tahlil qilingan. O‘rganish va tahlillar natijalari umumlashtirilgan va tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan. Xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o‘tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e‘lon qilingan. Olingan natijalar vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan ayollar retsidiv jinoyatchiligining oldini olishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar va ularni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishda, tegishli qonun normalarini sharhlashda, kriminologiya va jinoyat-ijroiya huquqi fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda, yangi ilmiy-tadqiqotlar olib borishda foydalanish mumkinligida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ayollar retsidiv jinoyatchiligining oldini olishni takomillashtirish, bu borada davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan hamkorligini tashkil etish, shuningdek, ayollar retsidiv jinoyatchiligining barvaqt oldini olish subyektlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan qonun hujjatlari va chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ayollar retsidiv jinoyatchiligining oldini olishni takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayollarni ishga qabul qilgan ish beruvchilarga Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan subsidiya berish tartibini joriy etishga doir takliflar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 5-sentyabrdagi "Aholining ijtimoiy ehtiyojmand ayrim toifalarini qo'llab-quvvatlash va ularning bandligiga ko'maklashish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 450-son qarorining 4-bandi birinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyati axborot-tahlil va yuridik ta'minlash departamentining 2024-yil 27-iyundagi 12/1-387-son dalolatnomasi). Mazkur tartib jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayollarni ishga qabul qilgan ish beruvchi tashkilotlarning moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlanishiga xizmat qilgan;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayollarni "ishga marhamat" monomarkazlari va kasb-hunarga o'qitish markazlarida davlat hisobidan mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunarga tayyorlash hamda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish amaliyotini yo'lga qo'yish bo'yicha takliflardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 5-sentyabrdagi "Aholining ijtimoiy ehtiyojmand ayrim toifalarini qo'llab-quvvatlash va ularning bandligiga ko'maklashish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 450-son qarorining 4-bandi ikkinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyati axborot-tahlil va yuridik ta'minlash departamentining 2024-yil 27-iyundagi 12/1-387-son dalolatnomasi). Mazkur tartib jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayollarni kasb-hunarga tayyorlash hamda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish orqali ularni ijtimoiy moslashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayollarni tegishli tashkilotlardagi mavjud bo'sh (vakant) hamda zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlariga ishga joylashtirish tizimini yo'lga qo'yish yuzasidan ishlab chiqilgan takliflar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 5-sentyabrdagi "Aholining ijtimoiy ehtiyojmand ayrim toifalarini qo'llab-quvvatlash va ularning bandligiga ko'maklashish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 450-son qarorining 4-bandi uchinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyati axborot-tahlil va yuridik ta'minlash departamentining 2024-yil 27-iyundagi 12/1-387-son dalolatnomasi). Mazkur tartib jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayollarni mehnat bozorida munosib ish o'rniga ega bo'lish tizimining shakllanishiga xizmat qilgan;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayollarning bandlik holatini "Bandlik xizmati" va "Ijtimoiy moslashtirish markazlari" axborot tizimiga integratsiya qilish orqali doimiy monitoring qilib borish tizimini joriy etishga oid takliflar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 5-sentyabrdagi "Aholining ijtimoiy ehtiyojmand ayrim toifalarini qo'llab-quvvatlash va ularning bandligiga ko'maklashish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 450-son qarorining 6-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyatining axborot-tahlil va yuridik ta'minlash departamentining 2024-yil

27-iyundagi 12/1-387-son dalolatnomasi). Mazkur tartib jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayollarning bandlik holatini monitoring etib borish tizimini shakllantirishga xizmat qilgan.

Taklif natijasida jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan ayollar retsidiv jinoyatchiligining oldini olish hamda ayollarning huquqlari va erkinliklarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta (3 ta xalqaro, 4 ta respublika miqyosidagi) ilmiy-amaliy anjumanlarda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta, jumladan dissertatsiyaning asosiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy nashrlarda 5 ta, xalqaro jurnalda 1 ta, ilmiy anjumanlarda 9 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, dissertatsiya ishining asosiy matni 139 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqot ishining **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiq etilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi va dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi yoritilgan.

Dissertatsiyaning "**Ayollar retsidiv jinoyatchiligini oldini olishning retrospektiv tahlili**" deb nomlangan birinchi bobida ayollar retsidiv jinoyatchiligining tushunchasi, ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar tarixiy va tizimli yondashuvlar asosida tahlil etilgan bo'lib, unda jinoyat-ijroiya huquqiy jihatlari, ayollarga nisbatan qo'llanilgan jazo choralari, javobgarlik belgilangan qonun normalarining rivojlanish tarixi, uning uchun javobgarlik belgilanishining ijtimoiy zarurati, ayollarga berilgan imkoniyatlar va buzilgan huquqlarining tiklanishi yoritilib, huquqiy belgilariga doir nazariy-huquqiy qarashlar o'rganilgan, ayollar retsidiv jinoyatchiligining miqdor va sifat ko'rsatkichlarining o'sib borishiga oid jazoni ijro etish koloniyalaridagi mahkuma ayollardan sotsiologik so'rovnomalar o'tkazilib, ayollar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning huquqiy-statistik ma'lumotlari bilan qiyosiy tahlil qilingan.

Ushbu bobning birinchi paragrafi "*Ayollar retsidiv jinoyatchiligini oldini olishning retrospektiv tahlili*" deb nomlangan bo'lib, unda ayollar retsidiv jinoyatchiligining tarixi, rivojlanib borishi, ayollar retsidiv jinoyatchiligining tushunchasi, ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar uchun javobgarlikning belgilanganligi hamda jazolash tizimining ahamiyati ochib berilgan.

Ayollar retsidiv jinoyatchiligining ayrim jihatlari mamlakatimiz olimlari Q.R. Abdurasulova, G.U. Axmedova, A.G. Zakirova, Z.S. Zaripov, R. Kabulov, Yu.S. Pulatov, N.S. Salayev, M.Sh. Yuldashev hamda xorijiy tadqiqotchilardan Yu.M. Antonyan, M.N. Gerneta, J.A. Kettle, M.V. Karpushina, Ch. Lombrozo, tomonlaridan yoritilgan. Shuningdek, boshqa bir qator olimlar ayollar retsidiv jinoyatchiligining oldini olish, profilaktik chora-tadbirlarni joriy qilish va jazoni ijro etish muassasalarida ayollarning jazo o'tashining o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etishgan.

Tadqiqotchining fikricha, *ayollar retsidiv jinoyatchiligi* ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlangan, sudlanganlik holati tugallangan (tugallanmaganligi) yoki olib tashlangan (tashlanmaganligidan) qat'iy nazar qasddan yangi jinoyat sodir etgan ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar degan ta'rif ishlab chiqilgan.

Dissertant tomonidan ayollar retsidiv jinoyatchiligining shakllanishi va rivojlanish tendensiyalarini qiyosiy-huquqiy tahlil qilinib, quyidagi davrlarga bo'lib o'rganilgan:

birinchi davr – (qadimgi O'rta Osiyo mil. av. III-II-ming yilliklar va islom dinining yoyilishi) bo'lgan davrni o'z ichiga olib, yurtimiz hududida qadimdan mavjud davlatlarda jinoyat va jazo tizimi odat huquqi hamda zardushtiylik dinining asosiy manbasi "Avesto" asosida tartibga solingan. Islom dini paydo bo'lganidan so'ng, ayollarga nisbatan bo'lgan e'tibor ancha yuksalib, Saudiya Arabistonida hamda keyinchalik arablar tomonidan bosib olingan barcha davlatlarda jamiyat hayotida ayollarning o'rni va nufuzi ortib borgan. XVIII–XIX asrlarda Buxoro amirlikdagi barcha jinoyat ishlar qozilar tomonidan hal qilingan. Barcha fuqarolik, xo'jalik va jinoyat ishlar Qur'on asosida ko'rib chiqilgan hamda jazolar tayinlangan;

ikkinchi davr– (Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davri XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asrning boshlarigacha), Rossiya imperiyasi Turkiston yerlarini bosib olganidan so'ng, ayollar va erkaklar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar uchun sud qilinishi va ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi, sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishiga yarasha turmalarda jazo o'tash amaliyoti joriy etilgan;

Russoning ayollar jinoyatchiligining sabablarini ijtimoiy tenglikning adolatsizligi va ayollarga erkaklar tomonidan kuchli tazyiqlar o'tkazilishiga sabab bo'lgan degan fikriga dissertant qisman qo'shilmagan, uning qarashlari o'sha davrga to'g'ri kelganligini, yurtimizda tarixdan ayollarni qadrlash ularga ona sifatida qarash, ayollar huquqlari himoya qilinganligi bildirilgan.

uchinchi davr – (Sobiq Ittifoq davri 1918-yildan 1991-yilgacha), ma'lumotlarga ko'ra, 1918–1953-yillarda qamoqxonalar tizimi orqali jami 7,6 million kishi jazo muddatini o'tagan, mahkuma ayollarning umumiy soni 1953-yil 1-yanvar holatiga ko'ra - 521588 nafarni tashkil etgan. O'sha davrda ayollarga nisbatan ham erkaklar singari surgun qilish va ozodlikdan mahrum qilish jazolari tadqiq etilgan;

to'rtinchi davr – (1991-yildan hozirga qadar) ayollar jinoyatchiligining sabablari va unga imkon bergan omillarni ilmiy jihatdan o'rganish, ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va moslashtirish masalalariga qaratilgan.

Dissertant tomonidan ayollar retsidiv jinoyatchiligini retrospektiv tahlil qilish natijasida XIX asrning o'rtalaridan boshlab ayollar retsidiv jinoyatchiligining oldini olish masalasiga ko'proq e'tibor qaratilganligini hamda ayollarning erkaklardan ko'ra

ko'proq axloqiy fazilatlarga ega ekanliklari, qonunga itoatkorligi, tabiati yumshoqligi, jismonan zaifligi, ijtimoiy xulq-atvor me'yorlariga nisbatan talabchanliklari tufayli ular tomonidan nisbatan kamroq jinoyat sodir etishi isbotlangan.

Shuningdek, olimlar Q.R. Abdurasulova, M.V. Karpushina, D.R. Kazakovalarning ayollar retsivid jinoyatchiligi bo'yicha berilgan ta'riflarini o'rgangan holda tadqiqotchi "*ayollar retsivid jinoyatchiligi*" tushunchasiga mualliflik ta'rifini shakllantirilgan.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafi "*Ayollar retsivid jinoyatchiligining sabab va shartlari*" deb nomlangan bo'lib, ayollar tomonidan sodir etiladigan retsivid jinoyatchiligining miqdor va sifat ko'rsatkichlari, sabablari, ularga imkon bergan shart-sharoitlari, ayollar jinoyatchiligining dinamikasi, darajasi va tuzilishiga e'tibor qaratilgan.

Ayollar jinoyatchiligining miqdor va sifat ko'rsatkichlari ayollar jinoyatchiligining dinamikasi, darajasi va tuzilishi orqali ochib berilgan. Dissertant M.N. Gernet, A. Kettle, E.N. Tarnovskaya, I.Ya. Foyniskiy, X.M. Charixovlar tomonidan erkaklar retsivid jinoyatchiligining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari ayollardan ancha yuqori ekanligiga oid bildirilgan fikr-mulohazalar bilan bahsga kirishib, ayollarning retsivid jinoyatchiligi erkaklar jinoyati singari ko'p bo'lmasligi, biroq, ayolning ona ekanligini, farzandlarni tarbiya qiluvchi shaxsligini e'tiborga olgan holda ayollar tomonidan sodir etilgan har bir jinoyat erkaklarnikiga qaraganda ko'proq salbiy holat keltirib chiqarishi asoslantirilgan.

Tadqiqot jarayonida ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni tahlil qilish orqali 2019-2024-yillarda ayollar retsivid jinoyatchiligi 2,4 foizga oshganligini, ayollarga ozodlikdan mahrum qilish jazosini qo'llash 3 barobarga oshganligini va ayollarning jinoyatchilikdagi umumiy ulushi 2019-yilda 11,8 foiz, 2024-yilda 12,2 foizga oshganligini ochib bergan.

Tadqiqotda mahkuma ayollardan olingan anketa so'rov natijalariga ko'ra respondentlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning asosiy sabablari va unga imkon bergan shart-sharoitlar quyidagilardan iborat: moddiy yetishmovchilik (69 %); ayollarning ijtimoiy munosabatlarda ishtirokining oshib borayotganligi (60 %); oilaviy qadriyatlar bo'yicha ko'nikmalarining shakllanmaganligi natijasida turmushdan ajrashish yoki turmush qurmaslik (57 %); oilaviy munosabatlardagi ziddiyatlarning (turmush o'rtog'i, farzandlari va boshqa oilaning a'zolari bilan bog'liq moddiy, ma'naviy-axloqiy tarbiya asosidagi) kuchayishi (49 %); huquqiy ongining pastligi (jazoga tortilishini bilmaganligi) (43 %); ma'lumot darajasining pastligi (42 %); turmush qurib ajrashganligi natijasida moddiy yetishmovchilik (35 %); ota-ona va yaqinlari tomonidan axloqiga yetarli e'tibor berilmaganligi natijasida betartib jinsiy munosabatlarga kirishib fohishalik bilan shug'ullanganligi (21 %). Mazkur omillar inobatga olinib, dissertatsiya ishida jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan ayollar retsivid jinoyatchiligining oldini olish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Dissertantning ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning turlaridan kelib chiqqan holda qilgan tahliliga ko'ra eng ko'p ulushi (20 foizi) firibgarlik, (14 foizi) o'g'rilik tashkil etishi dissertant tomonidan tahlil qilingan.

Tadqiqotchi tomonidan jazoni ijro etish koloniyalarida jazoni o'tayotgan retsivist ayollar bilan o'tkazgan sotsiologik so'rov natijalariga ko'ra respondentlarning yarmidan ko'pi (53,5 foiz) bir marta, uchdan bir qismi (33,8 foiz) ikki marta, har o'ninchi (10,2 foiz) – uch marta va 2,5 foiz – uch martadan ortiq sudlanganligi aniqlangan.

P.N. Tarnovskayaning ayollar retsivid jinoyatlarining asosiy sababi, ularning jinoyat sodir etishga psixofiziologik moyilligi bilan bog'liq holda ruhiy buzilish oqibatida sodir etishi to'g'risidagi fikriga dissertant qisman qo'shilmagan holda ayollarning jinoyat sodir etishiga faqatgina ularning psixofiziologik moyilligi emas, balki, yashab turgan jamiyatda yuzaga keladigan ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va madaniy sabablar ham sabab bo'lishi asoslantirilgan.

Dissertatsiyaning **“Jazoni ijro etish muassasalarida jazoni o'tayotgan va jazoni o'tagan retsivist ayollarning kriminologik tavsifi va tipologiyasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o'tayotgan mahkuma ayollarning o'ziga xos xususiyatlarini ayrim turlarga ajratib o'rganilgan. Ayollarning retsivid jinoiy xulq-atvorining shakllanishi va rivojlanishida kriminologik, biologik, tipologik va ijtimoiy-sotsiologik omillarning ta'siri aniqlashtirilib berilgan.

Ikkinchi bobning birinchi paragrafi *“Jazoni ijro etish muassasalarida jazo o'tayotgan va jazoni o'tagan retsivist ayollarning kriminologik tavsifi”* deb nomlangan bo'lib, jinoyat sodir etib sudlangan ayollar retsivid jinoyatchiligining kriminologik tavsifi, jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o'tayotgan ayollar retsivid jinoyatchiligining tavsifi, tipologiyasi, jinoiy xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-iqtisodiy sabablar, maishiy omillar jamlanmasi tahlil qilingan.

Tadqiqotda respublikadagi 21-son jazoni ijro etish koloniyasi umumiy, qattiq tartibli va voyaga yetmagan qizlar uchun tarbiya koloniyasining o'rnini bosishini, ayollar uchun boshqa alohida yopiq turdagi koloniya mavjud emasligi, mazkur koloniyada birinchi marta jinoyat sodir etib ozodlikdan mahrum etilgan ayollar, ilgari qasddan jinoyat sodir etib ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tagan va qasddan jinoyat sodir etganligi uchun takror sudlangan ayollar, voyaga yetmaganlar hamda o'ta xavfli retsivist deb topilgan ayollarning barchasi bitta muassasada jazo muddatini o'tashi hamda mahkuma ayollar oshxonada, ishlab chiqarish sahnida, qisqa va uzoq muddatli uchrashuv xonalarida bir-birlari bilan suhbatlashib, jinoyat sodir etish usullari bo'yicha o'zaro fikr almashishlarini bunga yo'l qo'ymaslik maqsadida ayollar saqlanadigan har xil rejimdagi jazoni ijro etish muassasalarini tashkil etish lozimligini bayon etgan.

Dissertant mazkur taklifning amalga oshirish tartibini quyidagicha keltirgan: ilgari qasddan sodir etilgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tagan va o'ta og'ir jinoyat sodir etganlik uchun yana sudlangan ayollar, shuningdek o'ta xavfli retsivist deb topilgan ayollarga esa alohida koloniyada tashkil etish lozim. Bu taklifimizning ishlash mexanizimi quyidagicha bo'ladi. Hozirda mavjud bo'lgan Jazoni ijro etish departamenti to'rtinchi mintaqaviy muvofiqlashtirish markazi 3-son jazoni ijro etish koloniyasini qattiq tartibli koloniya etib belgilash va yuqorida keltirilgan ilgari qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tagan va o'ta og'ir jinoyat sodir

etganlik uchun yana sudlangan ayollar, shuningdek o'ta xavfli retsivist deb topilgan ayollarni ko'chirib o'tkazish kerakligi maqsadga muvofiq deb hisoblangan.

Dissertant huquqni qo'llash amaliyotida 21-son JIEKni og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan *ayollar va voyaga yetmagan ayollar* saqlanadigan jazoni o'tash joyi etib belgilash lozimligi masalasini o'tkazgan so'rovnomalarda ishtirok etgan respondentlarning 64 foizi alohida koloniya qilish zarurligini bildirishgan.

Tadqiqot davomida amaliyotda misollar keltirilgan. Jumladan, fuqaro R.A.ga nisbatan qo'zg'atilgan jinoiy ishida ilgari 7 (etti) marotaba sudlangan "o'ta xavfli retsivist" deb topilganligiga qaramay takroran JKning 169-moddasi (o'g'rilik) jinoyatini sodir etganligi hamda bir necha marotaba jazo muddatini o'tagan 21-son JIEKga jazo muddatini o'tash uchun yuborilganligini u yerda jinoyatchilar bilan qayta topishadi va kelajakda retsivist jinoyat sodir etish usullarini o'ylashga hamda qo'lga tushmaslik yo'llarini o'rganish orqali tajriba orttiradi degan xulosaga kelingan.

Ayollar retsivist jinoyatchiligining ortib borish statistik ma'lumotlar ham isbotlaydi 2024-yilda jami 7132 nafar ayol jinoyat sodir etgan bo'lib, 1182 nafar ayollarga (20,9 foiz) ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan bo'lib, ularning (8,8 foizi) ayollar retsivist jinoyatining hisobiga to'g'ri kelganligi aniqlangan.

Tadqiqotchi 21-son JIEKda jazo muddatini o'tayotgan 961 nafar ayollarni o'rganganida 581 nafari birinchi marta sudlangan, 380 nafari ilgari sudlanganligi tahlil qilingan. Shundan 104 nafar (10,8 foizi) ayol sud tomonidan o'ta xavfli retsivist deb topilgan bo'lib, takror retsivist jinoyat sodir etgan. Jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o'tagan ayollar jinoyatchiligi bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borgan N.S. Artemev, G.U. Axmedova, M.V. Karpushinalarning nazariy qarashlarini muhokama qilish asosida, jazoni ijro etish muassasasida jazo o'tagan ayollar o'zlarining kriminogenligini saqlab qolishadi degan xulosaga kelingan.

Tadqiqotda jazoni ijro etish muassasasida jazo o'tayotgan retsivist mahkuma ayollarning 104 nafaridan olingan so'rovnomaga asosan ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanguniga qadar ularning kasb-hunari tahlil qilinganda: 4,1 foizi oshpaz, 8,3 foizi o'qituvchi, 12,5 foizi sartaosh, 12,7 foizi tikuvchi, 29,1 foizi tadbirkor va 33,3 foizi kasb-hunarga ega bo'lmaganligi aniqlangan.

Ozodlikdan mahrum etish jazosi tayinlanishiga qadar o'ta xavfli retsivist ayol mahkumalarning 2 nafari (1,9 foizi) nafaqada bo'lganligi, 11 nafari (10,6 foizi) xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanganligi va 91 nafari (87,5 foizi) ishsiz bo'lganligini o'tkazilgan so'rov natijalarida aniqlashtirilgan..

Jazoni ijro etish muassasasida jazo muddatini o'tayotgan mahkuma ayollardan zamonaviy kasb-hunarga o'qitilishi bo'yicha o'tkazilgan so'rov natijalarida mahkuma ayollar zamonaviy kasb-hunarga o'qitish ijobiy yangilik bo'lishini ta'kidlashgan. Hozirgi kunda jazoni ijro etish muassasasida ayollar asosan tikuvchilik va to'qimachilik bilan shug'ullanishi ko'rsatilgan.

Tadqiqotchi tomonidan ayol mahkumalarni jazodan ozod qilishdan oldin zamonaviy kasblarga o'qitish maqsadli bo'lishini, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 5-martdagi "Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq jazolarni ijro etish muassasalarining faoliyati samaradorligini ta'minlash bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi 128-son qarorining 5-bob 26-band

7-xatboshisini quyidagicha to'ldirish: "mahkum va mahkumalarni mehnat bozorida yuqori ehtiyojga ega bo'lgan kasb-hunarga o'qitish jarayoni masalalari bo'yicha ta'lim muassasalari bilan hamkorlikdagi faoliyatni yanada takomillashtirish" kerakligi isbotlangan.

Dissertantning fikricha, mahkuma ayollar uchun zamon talabiga mos ravishda kompyuter dasturchisi, buxgalter, marketing, sartarosh, stilist, makiyaj, interfeys dizayner, menedjer, kosmetolog kabi kasb-hunarlariga o'qitish masalalari bo'yicha ta'lim muassasalari bilan hamkorlikdagi faoliyatni yanada takomillashtirish mexanizmi jazoni ijro etish muassasalaridan ijtimoiy xodim tomonidan ozod etilishiga 3 oy qolgan mahkumalarni ish bilan ta'minlash va moddiy yordam berish bo'yicha xabarnomalar hokimiyat huzuridagi ijtimoiy moslashtirish markazlariga yuboriladi. Xabarnomaga asosan, ijtimoiy moslashtirish markazlari o'z viloyatidagi ayollar uchun mos bo'lgan yuqorida keltirilgan kasblardan biriga 2-3 oylik kurslarda o'qitish bo'yicha xat tayyorlanadi va pul mablag'lari jazoni ijro etish muassasasining hisob raqamiga tashlab berish ijobiy natija berishini ta'kidlagan.

Shuningdek, jazoni ijro etish muassasasining ijtimoiy xodimlari ozod etilgan mahkumalarning jamiyatda o'z o'rnini topganligini va ishga joylashganligining monitoringini yo'lga qo'yish lozimligini asoslab bergan.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafi "Jazoni ijro etish muassasalarida jazo o'tayotgan va jazoni o'tagan retsivist ayollarning tipologiyasi" deb nomlangan bo'lib unda ayollar retsivid jinoyatchiligining xususiyatlari va jinoyatchi ayollarning psixologik portretini tuzishi orqali turlarga ajratgan holda tipologiyasi tahlil qilingan.

A.G.Kovalev, M.V.Eleskin, N.Ibragimova, G.U. Axmedovalar tomonidan bildirilgan fikrlar hamda olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra retsivist ayollarni kriminologik jihatdan toifalarga ajratib, «jinoyat sodir etishga moyil retsivist ayollar», «tajovuzkor retsivist ayollar», «o'z kasbi orqali jinoyat sodir etuvchi retsivist ayollar», «giyohvand va psixotrop moddalarni sotuvchi retsivist ayollar», «tushkun holatidagi (passiv-disgarmoniyali) retsivist ayollar» tushunchalariga quyidagi mualliflik ta'riflari ishlab chiqilgan.

jinoyat sodir etishga moyil retsivist ayollar – jamiyatda ijtimoiy aloqalari yo'qolgan va jinoyat olamida yashashga hamda ikki va undan ortiq jinoyat sodir etgan ayollar;

tajovuzkor retsivist ayollar – jamiyatdagi tajovuzkor yomon illatlarga moslashgan, oilaviy janjallar va jinoyat guruh tarkibida jinoyat sodir etgan ayollar;

o'z kasbi orqali jinoyat sodir etuvchi retsivist ayollar – ma'lum bir kasbga ega bo'lib, ushbu kasbi bilan bog'liq jinoyatni sodir etgan va mazkur kasbdan foydalangan holda yoki uni suiiste'mol qilib jinoyat sodir etgan ayollar;

giyohvand va psixotrop moddalarni sotuvchi retsivist ayollar – giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar savdosi yoki iste'mol qilish maqsadida saqlagani uchun ilgari sudlangan, mazkur jinoyatlarni yana sodir etish ehtimoli yuqori bo'lgan ayollar;

tushkun holatidagi (passiv-disgarmoniyali) retsivist ayollar – ilgari sodir etgan jinoyat uchun sudlangan, doimiy ruhan charchoq yoki tushkun kayfiyatiga ega, atrofidagi odamlardan aldangan yoki yaqin qarindoshlari bilan aloqalarni uzib, ular bilan munosabatga kirishmaydigan ayollar tushuniladi degan ta'riflar berilgan.

Tadqiqotchi tomonidan berilgan mualliflik ta'riflaridan biri bo'lgan «o'z kasbi orqali jinoyat sodir etuvchi retsivist ayollar» toifasi o'rganilganda mahkuma N.S.ning hukmida “Sam suzani plyus” MChJ shifoxonasi rahbari N.S. shifokorlik kasbiga dog' tushirgan holda homiladorlikni sun'iy ravishda tushurish (abort) orqali chala va muddatidan oldin tug'ilgan chaqaloqlarni 2-sonli tug'ruqxonaga keltirib, mufel pechiga tashlab yoqish yo'li bilan o'ldirgan. Sog'lom tug'ilgan chaqaloqlarga esa xaridor qidirib, har bir chaqaloqni taxminan 500 dollardan 2000 AQSh dollarigacha sotgan. N.S. ilgari bir necha bor boshqa jinoyatlari bilan jinoiy javobgarlikka tortilgan retsivist ayol bo'lgan. Amaliyot shuni ko'rsatadiki kasbi orqali boylik orttirish maqsadidagi jinoyatchi ayollar retsivid jinoyatlarni sodir etishdan tiyilishmasligi haqidagi xulosaga kelingan.

Dissertant tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmonining 14-maqsadi 4-bandiga muvofiq “Mahkumlarning tuzalish yo'liga o'tganligini belgilovchi qat'iy mezonlarni belgilash” talablaridan kelib chiqqan holda hamda Ichki ishlar vazirining 2023-yil 30-maydagi “Ichki ishlar vazirligining jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o'tayotgan mahkumlar bilan tarbiyaviy va ijtimoiy-psixologik ishlarni tashkil etish tartibi to'g'risida”gi 284-sonli buyrug'ini mazmunan boyitish maqsadida “*axloqan tuzalish yo'liga o'tmagan mahkuma ayollar*”, “*axloqan tuzalish yo'lidagi mahkuma ayollar*” va “*qat'iy axloqan tuzalish yo'liga o'tgan mahkuma ayollar*” deb ayollarni axloqan tuzalganligiga ko'ra uch turga ajratish lozimligi taklif etilgan.

